

FFN BOLALAR NUTQINI TEKSHIRISH

Isomitdinova Shaxinabonu Zavqiddin qizi*JDDU Defektologiya yònalishi 4 bosqich talabasi*

Annotatsiya. *Nutqning fonetik-fonematik tomondan rivojlanmaganligi—bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir. Fonematik idrok sensor funktsiya sifatida juda erta shakllanadi.*

Kalit sòzlar: *Nutq, idrok qilish, fonematik idrok, sensor funktsiya, korreksiya, òyin faoliyati.*

Nutq kamchiligi boʻlgan bolalar – nutq sensor organlarning orttirilgan yoki tugʻma organik jarohatlanishi natijasida funksiyalarning buzilishi kiradi. Nutq murakkab dialektik jarayondir. Nutq jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga-haqiqatni nutqning, obektiv reallikni nutqning dialektik yoʻlidir. Inson va atrof muhit doimiy ravishda aloqada boʻlib, u koʻrish, eshitish, teri, taʼm, hid nutq, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi. Eshitish analizatori insonning barcha aʼzolari ichida eng ahamiyat-lilaridan sanalib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iboratdir. Toʻlaqonli eshitish nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq orqali esa insonning soʻz-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir boʻladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular soʻz shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon boʻladi. Inson oʻzi koʻrgan va taʼsirlangan buyum va hodisalarni soʻz yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar koʻrinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega boʻladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida nutq kamchiliklariga ega boʻlgan bolalarni tarbiyalash bolalar bogʻchasi tarbiya dasturiga muvofiq tashkil qilinadi. Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega boʻlgan bolalar ommaviy turdagi maktabgacha tarbiya muassasalarning maktabga tayyorlov guruhlariga moʻljallangan bilim, koʻnikma va malakalar hajmini oʻzlashtirishlari kerak.

Fonetik-fonematik jihatdan nutq rivojlanmagan bolalar guruhlariga olib kelingan bolalar 10 oy ichida umumtaʼlim maktabida muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur

bo'lgan asosiy topshiriqlar, ko'nikma va malakalar hajmini o'zlashtirib olishlari lozim. Nutq faoliyatining ayrim tomonlarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni aniqlash maqsadida quyidagi maxsus ishlar amalga oshiriladi:

- talaffuz malakalarini shakllantirish;
- fonematik idrokni rivojlantirish;
- tovush analiz va sintezi ko'nikmalarini rivojlantirish

Tuzatuvchi ta'limning maqsadi: bolalarda umumiy va nutq

kamchiliklarni tuzatish hamda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus logopedik metod va usullarni qo'llash yo'li bilan bolaning yoshiga muvofiq lug'at boyligi va mustaqil nutq bilan birga to'g'ri, aniq, ravon nutqni tarbiyalash.

Bolalarda bajarilgan ish harakatlari algoritmining asta sekin shakllantirib va mustahkamlab borib, avval logoped rahbarligida so'ngra bolaning o'zini so'z, bo'g'in, tovushning analiz-sintez qila olishini mustaqil nazorat qilishga va o'z ishini baholashga o'rgatiladi. Korreksion ta'limning muhim vazifalaridan biri oppozitsion va to'g'ri talaffuziga erishilgan tovushlar differentsiatsiyasiga oid mashg'ulotlar hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlarda artikulyatsion va akustik belgilari jihatidan o'xshash tovushlar differentsiatsiyasiga oid turli usullar qo'llaniladi. Mashg'ulotlarda bolalar diqqati, xotira, tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, solishtirish, umimlashtirish), nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqillikni rivojlantiruvchi ishlar olib boriladi. Tarbiyachi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda bolalarning atrofda predmetlar va hodisalar haqidagi tasavvurlar hosil qilish va ularni bir tizimga solish, tabiiy va ijtimoiy hodisalar bilan tanishtirish bilan bir vaqtda bolalarning lug'at boyligi kengaytiriladi, so'zlashuv va hikoya nutqi rivojlantiriladi. Shunday qilib, bolalar nutqi turli yo'llar bilan rivojlantirib boriladi, lekin bir maqsadni — ta'lim va tarbiya berish jarayonida bolalarning nutqiy taraqqiyotidan kamchiliklarni yo'qotish va uni maktabda ko'nikma va malakalar olishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aralova I.M Maktabgacha Ta’lim Ypshidagi Bolalarni Nutq Nuqsonlarin Korreksiyalashda Tasviriy Faoliyatdan Foydalanish Metodlari. „Xalq Ta’limi ‘‘O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligining Ilmiy-Metodik Jurnalı 2021
2. Aralova I.M “Maktabgacha Ta’lim Tashkilotida Tasviriy Faoliyatning Mashg‘Ulot Turlari Va Mazmuni”. «Муғаллим Ҳәм Үзликсиз Билимлендириў» № 6/5 Нөкис — 2022
3. Akramova X, Aralova I. Maktabgacha ta’lim ypshidagi bolalarni nutq nuqsonlarini korreksiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlari. „Xalq ta’limi ‘‘O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligining Ilmiy-metodik jurnalı 2021
4. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. “Nasaf”2000 y.-80 b.
5. Talipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari: O’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalari biologiya o’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. – T.: O’qituvchi, 2002.
6. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005.